

## USE OF THE STORY IN THE DEVELOPMENT OF CHILDREN'S SPEECH WITH HEARING IMPAIRMENT IN PRESCHOOL AGE

O'ktamova Niginabonu Sherali qizi

Bukhara State Pedagogical Institute

Preschool

Stage 1 student

### ANNOTATION

*This article presents a wide range of information about the pedagogical significance of the use of the story in the development of speech of children with hearing impairments in preschool age, as well as specific features.*

**Key words:** *teaching storytelling, children with defects, story, speech, reading, correct and fluent speech, preparation for literacy.*

Ongli ravishda qayta hikoyalashga o'rgatish eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga ona tilini o'zlashtirish, eshitilgan va o'qilgan narsalarni tushunishini tekshirish, mustaqil nutqini rivojlantirish vositasi hisoblanadi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar kichik yoshdan boshlab o'qishni o'rganib oladilar, shu sababli jadvalchalarda yozilgan matnlarni eslab qolish hamda takrorlash ular uchun uncha qiyinchilik tug'dirmaydi. Albatta, bu takrorlashni qayta hikoyalash deb bo'lmaydi. Lekin, tanish matnlarni eslab qolish malakalarini rivojlantirib borish kerak, sababi bolalarda lug'at boyligi ortib boradi, nutqiy xotirasi rivojlanib boradi, gap tuzish malakalari shakllanadi. Hikoyalab berishni o'rgatishdan ko'zlangan asosiy maqsad qabul qilingan narsani mustaqil ravishda bog'lanishli bayon etish malakalarini orttirishga bolalarga yordam berishdir.

*Matnni hikoyalab berish.* Pedagog bolalarga soʻzlab beradigan matnni oldindan tayyorlaydi. Matn sodda boʻlishi kerak. Hikoyalab berishga oʻrgatishdan maqsad bolalarda oʻqishga boʻlgan qiziqishni uygʻotish, axloqiy fazilatlarini shakllantirish.

Pedagog hikoyalab borayotgan paytda bolalar oldida matn boʻlmaydi. Hikoya ogʻzaki daktil bayon etiladi. Zarurat boʻlganda, alohida soʻz va iboralarni yetkazish uchun, yozuvli jadvalchalar yoki doskadagi yozuvlardan foydalaniladi. Bolalar pedagog hikoyasini ketidan takrorlaydilar. Hikoyalash 2-3 marta takrorlangach, bolalarga mustaqil oʻqish uchun hikoyaning qisqa varianti beriladi. Matnlar doskada yoki plakatda yozilgan boʻlib, iloji boricha gaplar bitta qatorida joylashish lozim.

Hikoyalab berishda bolalar ikkinchi yildan boshlab oʻrgatilishi mumkin. Matnning hajmi va mazmuni bolalarning umumiy va nutqiy rivojlanish saviyasiga bogʻliq. Hikoya qilib berishda oʻyinchoq, rasmlar, sahna koʻrinishlari, kino va diofilmlardan keng foydalaniladi. Bajargan topshiriqlar haqida bayon etish rasmlar asosida gap tuzish, savollarga javob berish, rasm tagidagi yozuvlarni oʻqish ham bolalarni mashgʻulotga tayyorlaydi. Taʼlimning ikkinchi yilida ogʻzaki daktil ravishda hikoyalab berish oʻyinchoqlar xatti - harakatlarini namoyish bilan birgalikda amalga oshiriladi. Hikoyalar juda sodda boʻladi. Masalan: Katta quyon sabzi yeyapti. Kichkina quyoncha yugurib keldi. Kichkina quyoncha sabzi soʻradi. Sabzi ber. Katta quyon unga sabzi berdi. Kichkina quyoncha “Raxmat” dedi. Quyoncha sabzi yedi.

Pedagog oʻyinchoqlar yordamida har bir oʻqilgan gapning mazmunini koʻrsatib beradi. Masalan, katta quyon sabzi yeyotganini koʻrsatib. Katta quyon sabzi yeyapti deydi, bolalar pedagog ketidan ogʻzaki yoki daktil qaytaradilar. Matn mazmuni yetkazilgandan soʻng, pedagog bolalarni xulosa qilishga undaydi: Katta quyonga mehribon ekan. Pedagog soʻraydi. Nima uchun? Bolalar javob beradi: U kichkina quyonchaga sabzi berdi.

Bu kichik-kichik hikoya bolalarni qiziqtirishi uchun, pedagog aktyorlik mahoratiga ijodiy tafakkurga ega boʻlmogʻi kerak. Hikoya bolalarni qiziqtirishi uchun

pedagogning imo-ishoralar va yuz mimikasi ifodali bo‘lmog‘i zarur. Hikoyaning har bir syujeti o‘yinchoqlar yordamida ko‘rsatiladi. Hikoya qilib berish chog‘ida, har bir aytilgan gapning ketidan, pedagog kontrol savollar beradi: Quyioncha nima yeyapti? U sabzini kimga berdi. Va h.k. Hikoya ikkinchi marta bayon etiladi, so‘ng doskada qisqa matn yoziladi. Masalan: Kichkina quyioncha sabzi so‘rayapti. Katta quyion unga sabzi berdi. U mehribon. Kichkina quyioncha sabzi yeyapti.

Bolalar matnni o‘qiydilar va keyin barcha harakatlarni o‘yinchoqlar yordamida ko‘rsatadilar. Matnlar asta-sekin murakkablashib, ularning hajmi kattalashadi. Dasturga qayta hikoyalab berish uchun mo‘ljallangan matnlar hajmi va mazmun jihatdan o‘zlashtirish uchun murakkab hisoblanadi. Shuning uchun, pedagog qisqa matn tuzgandan so‘ng uni hikoyalab beradilar. Hikoyalab berish paytida ham matn yanada qisqartirilib, asosiy mazmun saqlanib qolinadi.

Dastlab bolalar (ta‘limning ikkinchi yilida) matn mazmuni bo‘yicha qo‘yilgan savollarga javob bergan holda hikoyalashni o‘rganadilar. Bolalarning javoblari doskaga yoziladi, javoblardan matn hosil bo‘ladi. Asta sekinlik bilan har bir hikoyaga berilgan reja savollar umumlashtirilgan holda berilib hikoyalashga yordam beradi. Sxemada qator savollar beriladi: Bu qachon bo‘lgan? Qayerda? Kimlar bor edi? Nima qildilar? va h.k. Bu savollar qayta hikoyalashdan avval doskaga ilib qo‘yish tavsiya etiladi. Mazkur sxemani bolalar eslab qolib hikoya qilish paytida undan foydalanadilar. Sxemada ongli ravishda foydalanishni o‘rgatish uchun sxemadagi savollarni mazmun jihatidan boshqacharoq savollar bilan almashtirib turish tavsiya etiladi. Ish jarayonida bolalar qayta hikoyalash, eng muhim, ketma-ket kabi so‘zlar ma‘nosi o‘zlashtiriladi. Maktabga tayyorlov guruhida hikoyalab bera oladigan matinning tahlilini o‘tkazish uchun 2-3 mashg‘ulot olib borish tavsiya etiladi. Doskaning chap tomonidan hikoya matinning namunasi, o‘ng tomonidan qayta hikoyaladigan matnning namunasi (qisqartirilgan) beriladi. Ikkala matnni taqqoslab, bir xil so‘zlar nima uchun tushurib ketilgani, boshqalari nima uchun olinganini tushuntiradi, olmoshlardan foydalanishi o‘rgatadi. Bu ish matndagi eng muhim tomoni aniqlash uchun olib boriladi. Keyin bolalarga matnni

qisqartirish yo‘llari ko‘rsatiladi. Dastlab bolalar qisqa matnlarini aslini hikoyalab beradilar. Matnlarni hikoyalashda bu zarur bosqichdir. Bolalar tomonidan ongli ravishda, matnni qisqartirib hikoyalash ularning yuqori saviyasidan dalolat beradi. Shuning uchun matnni hikoyalashga o‘rgatishda bolalarga ayrim so‘zlarni almashtirishga, gaplarning muhim tomonlarini qoldirib qisqartirishga o‘rgatiladi. Hikoyani eshitib, bir ikki savol yordamida bolalar tomonidan matn tushinilishi aniqlanadi. Shuningdek olmosh gaplarning tushunilishi ham aniqlanishi va bolalarni ulardan foydalanishga o‘rgatish kerak bo‘ladi. Hikoyalash paytida yo‘l qo‘yilgan grammatik xatolarni kuzatishda barcha guruh bolalari ishtirok etishlari kerak. Matn o‘zlashtirishini aniqlash uchun bolalarga matn mazmuni bo‘yicha rasm chizish taklif etiladi. Rasm bolalarga ko‘rsatiladi va uning mazmunini matn bilan solishtiriladi. Bunday turdagi mashg‘ulotlar 2-3 marta o‘tkazilishidan keyin bolalar matnda mazmun aks ettirish tushinib oladilar. Rasmlar matn 2-3 marta o‘qib bo‘lingandan keyin chizilgani uchun bolalar rasmlar asosida mustaqil gap tuzib hikoya qilib borishlari mumkin bo‘ladi. Bunday usul hikoyalab berishning eng samarali usullaridan bo‘lib, matn mazmunini o‘zlashtirishga xizmat qiladi.

Dastlab bunday vazifani eng kuchli tarbiyalanuvchilar bajara oladilar. Qiyinchiliklar tug‘ilganda hikoyalab berish paytida matndan foydalanish mumkin bo‘ladi. Mashg‘ulot kichik guruh bilan tashkil etilganda barcha bolalar o‘z rasm asosida hikoyalab berishlari mumkin. Hikoyalab beruvchi ketidan barcha bolalar takrorlab turadilar. Hikoyalab berish ko‘p marta takrorlanib matinni eslab qolinishiga yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Gryunevald G., Nire B. Aqliy va boshqa funktsional buzilishlarga ega bo‘lgan shaxslar uchun tashkil etilgan yopiq muassasalarda hayotni me‘yorlashuvi. SPb, 2003.
2. Ishmuhammedov R.J. «Innovatsion texnologiyalar yordamida o‘qitish samaradorligini oshirish yo‘llari» Toshkent: 2000y. 161 b.

3. Mo‘minova L.R. va boshqalar. Maxsus psixologiya. T.: “Noshir”, 2013 y.
4. Po‘latova P. va boshqalar. Maxsus pedagogika. T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2014 y.
5. Рыбакова М.М. Конфликт и взаимодействие в педагогическом процессе. – М.: 1991(1992). – 128 с.